

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA TA‘LIM MARKAZI**

**2011-2012 O‘QUV YILIDA UMUMIY  
O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARINING  
BITIRUVCHI 9-SINF O‘QUVCHILARI  
UCHUN ONA TILI, RUS TILI, TARIX,  
JISMONIY TARBIYA FANLARIDAN  
YAKUNIY NAZORAT IMTIHON  
MATERIALLARI VA METODIK  
TAVSIYALAR**

**G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent – 2012**

Imtihon materiallari va tavsiyalar Respublika Ta'lim markazi qoshidagi ilmiy-metodik kengashlar tomonidan muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

Maktab metodbirlashmalari imtihon biletlariga 15–20% hajmda o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

### **Tuzuvchilar:**

#### **ONA TILI**

**M. Abduraimova** – Respublika ta'lim markazi, filologiya fanlari bo'limi boshlig'i.

#### **TARIX**

**A. Zamonov** – RTM, ijtimoiy fanlar bo'limi bosh metodisti.

#### **RUS TILI**

**U. Yaminova** – RTM, xoroziy tillar bo'limi bosh metodisti.

#### **JISMONIY TARBIYA**

**F. Nadjimov** – RTM bosh metodisti.

**Nashr uchun mas'ul  
M.D.Abralova**

**Imtihon materiallarini ko'paytirib tarqatish ta'qiqlanadi.**

---

---

### **ONA TILI**

IX sinf bitiruvchilari yakuniy attestatsiyada ijodiy bayon yozadilar.

**Ijodiy bayon** ta'limiy bayonning murakkab turlaridan biri. Ijodiy bayon tanlangan matn mazmuniga o'quvchining ijodiy yondashishi jihatidan bayonning boshqa turlaridan farq qiladi. Ijodiy bayon o'quvchilarni tanlangan matnning badiiy jihatdan aniq va puxta, mantiqiy izchil, ijtimoiy hayot va voqelik bilan bog'liq holda yoritishga, mustaqil ijodiy fikrlashga, ona tilining boy ifoda vositalaridan unumli foydalanishga o'rgatish, yozma nutq malakalarini tarkib toptirish va savodxonlik darajasini oshirish, bu boradagi bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida yoziladi.

Ijodiy bayonda ko'proq badiiy, ma'naviy-ma'rifiy masalalar, ijtimoiy va siyosiy hayot, fan va texnika yangiliklari, fanlararo bog'liqlik to'g'risidagi mavzular yoritiladi.

O'quvchilar bayonning quyidagi turlaridan foydalanib **ijodiy bayon** yozadilar.

- Matnga badiiy tasvir vositalarini kiritish orqali ijodiy bayon yozish.
- Boshlab berilgan matnni o'z fikr-mushohadalari asosida davom ettirish.
- Matn shaxsini o'zgartirib ijodiy bayon yozish.
- Grammatik topshiriqli ijodiy bayon.

Ijodiy bayon yozish jarayonida o'quvchilar quyidagilarga e'tibor berishlari lozim:

- matnning mazmun-mohiyatini chuqur anglab olishi, nima haqda yozish kerakligini bilishi;
- matn mavzusiga oid ma'lumotlarni eslab qolishi;
- matn rejasini (sodda) tuzishi;
- reja asosida asosiy fikrlarni aniq, ketma-ket bayon etilishiga erishishi;
- matndagi voqea-hodisalarni atroflicha mushohada etgan holda yoritishi;
- mavzuga doir o'z mustaqil fikr-mulohazalarini yozishga erishishi;
- jumalarni tuzishda uslubiy ravonlikka, imlo savodxonligiga e'tibor berishi;
- ijodiy bayon qoralama nusxasi tayyor bo'lgach, uni qayta o'qib chiqishi;
- tayyor bo'lgan yozma ishni oqqa ko'chirishi.

Bayon matnlari 6 variantda tayyorlanadi. Har bir variantda bittadan matn bo'lib, har bir matn bilan birga ijodiy bayon yozishning bir turi asosidagi topshiriq beriladi. Bir o'quvchi 6 ta variantdan (konvertdan) bittasini tanlab oladi. Tanlab olingan konvertidagi matn mavzusi doskaga yozib qo'yiladi.

Ijodiy bayon uchun berilgan topshiriq ham doskaga yozib qo'yiladi. O'qituvchi tomonidan ijodiy bayon matni bir (lozim bo'lsa ikki) marta o'qib eshittiriladi. O'quvchilar eshitgan matn yuzasidan berilgan topshiriq asosida ijodiy bayon yozadilar. Ijodiy bayon hajmi kamida 3,5-bet bo'lishi lozim.

### Ijodiy bayon yozish uchun 2 astronomik soat beriladi.

Ijodiy bayon matnlari o'qituvchi tomonidan tanlanadi va maktab metod birlashmasida muhokama qilinib ma`qullanadi. Ma`qullangan materiallar maktab rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining IX sinflarida o'quvchilarning ta'lim tayyorgarligi darajasini baholashning reyting tizimiga ko'ra ijodiy bayon quyidagi umumlashtirilgan BKM elementlari asosida tekshiriladi va baholanadi.

### Bayonni baholash mezonlari:

No	Bilim, ko'nikma, malakalar	Ball
1	Reja mavzuga muvofiq tuzilgan, matn mazmuni to'g'ri bayon qilingan bo'lsa; bayon mantiqli va muntazam bo'lsa; so'z boyligi, ifoda qurilishi va uslubi adabiy til talablariga mos bo'lib; mazmun va ifodada bir ikki xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa; savodxonlikda qo'pol bo'lmagan bitta imlo yoki ikkita ishorat xatosi bo'lsa; uslubiy xato bo'lmasa.	5
2	Matn reja asosida yoritilib, fikr bayonida muntazamlik qisman buzilgan bo'lsa; so'z tanlashda va ifoda qurilishida har xillik bo'lsa; mazmun va ifodada kamchilik bo'lib, savodxonlikda 2 imlo, 2 ishorat va ikkita tagacha uslubiy xato mavjud bo'lsa.	4
3	Mavzu to'liq yoritilmagan, mavzudan qisman chetga chiqilgan bo'lsa; aniq voqealar izohida nuqsongacha yo'l qo'yilgan bo'lsa; so'z boyligi va ifoda tuzilishida nochorlik sezilib tursa; savodxonlikda 3 tagacha imlo, 4 tagacha ishorat, 3 tagacha uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa.	3
4	Matn mazmuni ko'p buzilgan bo'lsa; ish rejaqa mos bo'lmasa, fikr bayoni va qurilishida kamchilik bo'lsa, fikrlar bir-biriga bog'lanmasa; so'z boyligi sayoz bo'lib; mazmun va ifodada 5-6 tagacha nuqsonga yo'l qo'yilgan bo'lsa; savodxonlikda 7 tagacha imlo, 7 tagacha ishorat va 7 tagacha uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa.	2
5	Me'yoriy «2» ball uchun belgilangan mezondan oshsa.	1

### Ijodiy bayon uchun matnlardan namuna

#### «Vatan mensiz yashashi mumkin, lekin ...»

Vatan! Sen mening tug'ilib o'sgan qishlog'im, gullari atri meni go'zallikka yetaklagan gulbog'im, «shodon kunim gul otgan, nolon kunim yupatgan» onam, jismim qo'nim topgan koshonam, tarixi asrlarni yenggan azim chinorim, ko'ksimdagi iftixorimsan.

Vatan senga bo'lgan muhabbatim Himolaydan-da purviqor, sening ertang bo'yninga tumor, sen mening g'ururi osmonim, moziy dovonlaridan shon-sharaf bilan o'tgan karvonimsan.

Vatan! Sen mening ruhimdagi qarorim, kelajagim kutayotgan intizorimsan. Sen mening dunyoni titratgan Temurim, jahonga dong'i ketgan Boburim, quyosh nuri olamni yoritgani kabi ko'ngil olamimni yoritguvchi nurim tog'lardanda baland g'ururimsan.

Vatan! Sen mening butun borlig'im, hayotim parvozigga dalda bergan qanotim, meni ezgulikka yetaklagan adabiyotimsan. Boshqa yerning paxtasiga o'xshamaydigan- paykallab o'sadigan paxtamsan, sen mening Tangrim bergan baxtimsan.

Vatan! Sen she'rlarimga zeb, oro, minorlari asrlarni yenggan ko'hna Buxoroyimsan. Sen mehmondo'st lafzi asal qandim, buyuklarni ulg'aytirgan shahri Samarqandimsan. Sen orzularim arqonida chirmashgan ahdim, O'zbekistonim ko'rki Toshkentimsan. Sen mening hotamtoy dehqonim, quchog'i gullarga to'lgan Namangonimsan.

Vatan mensiz yashashi mumkin, lekin men Vatanimsiz yasholmayman. Mening bugunim va ertam O'zbekistonday yurtim borligida. Men shunday kamol topayki, Vatanimning buguni va ertasi uchun kerak bo'lay.

Moziyga qaytib Vatanim tarixini tasavvur qilib ko'raman. Ana o'sha olis o'tmishdan erk, ozodlik uchun kurashgan, iymoni po'latdan-da mustahkam, ma'naviyati bekam, so'zi shamshirdan-da keskinroq, zehni olmosdan-da o'tkirroq o'zbek xalqi tarixini o'qib, Vatanim istiqbolini ko'raman. Bu yurt o'z beshigida sohibqironni, so'z mulkingning sultonini ulg'aytirdi. Uning buyuk farzandlari dong'i dunyoga tarqaldi. Bugun ham u ana shunday farzandlarni o'stirayпти. Uning farzandlari bugun ham dunyoni larzaga solyapti.

Bu tuproq bizniki, shu osmon bizniki, erkimiz, qudratimiz o'zimizniki. Biz hech kimdan kam emasmiz. Shu Vatan ravnaqi, shu yurt kelajagini yaratishdek mas'uliyat ham bizniki. Bizning yurt hayotidan g'ofil qolishga, unga bo'lgan ma'suliyatni yelkadan olishga haqqimiz yo'q.

Vatan! Sening bugungi tinch kuning mening kelajagim, bugungi ravnaqing mening iqbolim, sen mening tangrim ado etgan ro'yi zaminim, sening dushmaning mening dushmanim. Sen mening tunda yo'lim yoritguvchi to'lin oyim, ajdodlarim izlari bor qadam joyim. Toki yashar ekanman, yuragimda senga bo'lgan muhabbatim alangasi yonaveradi. Yuragim menga bo'lgan mehning sharobidan qonaveradi.

(«Dillarda vatan madhi» to'plamidan)

### Topshiriqlar:

- Matn mazmunini so'zlab bering.
- Reja tuzib, matn mazmuni va o'zingiz yashab turgan hududga oid taassurotlaringiz asosida bayon yozing.

### ELEKTR STANSIYASI

Hozir hayotimizni radio, televideniye, telefon, telegrafsiz, turli xil yoritish jihozlari va qizdirish asboblarsiz, mashina va qurilmalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bularning hammasi elektr energiyasi ( toki) bilan ishlaydi.

Elektr energiyasi qayerdan olinadi? Uni elektr stansiyalarida maxsus mashinalar – elektr toki generatorlari hosil qiladi. Generatorlarning turlari ko‘p. Energiyasi kichkina uyni yoritish uchungina yetadigan mitti elektr generatorlardan tortib, katta shaharni elektr energiyasi bilan ta‘minlay oladigan ulkan elektr generatorlarigacha bor.

Gidroelektr stansiyalari Sirdaryo, Chirchiq, Bo‘zsuv kabi sersuv daryolarda yoki tog‘dan tushadigan tezoqar daryolarda quriladi.

Olimlar va muhandislar elektr energiyasining yangi manbalarini izlamoqdalar. Masalan, dengizning qirg‘oqqa urilib-qaytib turadigan to‘lqinlarini ishga solish mumkin emasmikan? Elektr stansiyalarining turbinalarini aylantirish uchun dengiz suvi kuchidan foydalanib bo‘lmasmikan? Ma‘lum bo‘lishicha, mumkin ekan. Saxovatli Quyosh milliard yillardan buyon o‘z nurini yerga sochib turadi. Quyosh nuri ham energiya. Odamlar uni elektr tokiga aylantirishni o‘rganib oldilar. Buning uchun maxsus yarimo‘tkazgichli asboblardan – fotoelementlar yaratilgan. Ular birgalikda quyosh batareyalarini tashkil qiladi. Quyosh radiostansiyasi energiyasini amalda foydalanish uchun qulay bo‘lgan energiya turlariga aylantirib berish masalalari bilan shug‘ullanadigan texnika sohasi geliotexnika deb ataladi. Geliotexnika yordamida elektr energiyasi yetib bormagan joylar (masalan, chorvadorlar istiqomat qiladigan joylar)ni elektr toki bilan ta‘minlash, uylarni elektr nurlari yordamida isitish, issiqxonalarini isitish va boshqa ko‘pgina ishlar amalga oshirilgan. Kosmik kemalar va Yerning sun‘iy yo‘ldoshlarini elektr energiyasi bilan aynan quyosh batareyalari ta‘minlaydi.

Ko‘rinadiki, elektr energiyasi bilan hayotimiz charog‘on, yo‘llarimiz, xonadonimiz nurga to‘lgan. Shunday ekan, undan tejab foydalanish, behuda sarf qilmaslik, undan foydalanish qoidalariga rioya qilish barchamizning vazifamizdir.

**(232 so‘z. «Bolalar ensiklopediyasi» dan)**

*Savol va topshiriqlar:*

1. O‘zbekistondagi qanday elektr stansiyalarni bilasiz?
2. Elektr energiyasidan qanday maqsadlarda foydalanamiz?
3. Elektr energiyasining hayotimizdagi o‘rni, undan oqilona foydalanish haqida va matn mazmuni asosida bayon yozing.

## **YURTNING YURAGI**

Poytaxt-davlat yuzidir. U qanchalar obod bo‘lsa, mamlakat shunchalar farovon bo‘ladi. Poytaxt katta karvon demak. Odatda katta karvon-poytaxt karvoni butun mamlakatdagi barcha karvonlarga sarbonlik-karvonboshilik qiladi.

Poytaxt uchun qayg‘urish barcha o‘zbekistonliklar va butun o‘zbeklar uchun burch va mas‘uliyatdir.

Toshkent 20 asrdan ortiq tarixiga ega. Bizgacha yetib kelgan yozma manbalarda keltirilgan ma‘lumotlarga qaraganda, Toshkentning eng qadimgi nomi «Choch» bo‘lgan. Milodiy sakkizinchi asrning boshidan boshlab arab

manbalarida «Shosh» deb atalgan. Aslida «Shosh» degani ham «Choch» deganidir. Chunki, arab alifbosida «ch» harfi yo‘qdir. Ilk o‘rta asrlarda Toshkent «Choch», «Shosh», «Shoshkent», «Madinayat ash-Shosh», «Binkat» va «Tarkan» deb ham nomlangan.

Shahrimiz «Toshkent» nomi dastavval Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Qoshg‘ariyning asarlarida tilga olingan. Toshkent degani toshdek mustahkam shahar deganidir.

Toshkent geografik jihatdan qulay, mo‘tadil iqlimli yerda –Chirchiq daryosi vohasida, savdo karvonlarining yo‘li ustida joylashgan. U Chirchiqdan qazib olib kelingan Bo‘zsuv va uning irmoqlaridan suv ichadi.

Toshkent asrlar mobaynida butun Turkistonning madaniyat, ilm-fan, hunarmandchilik, savdo-sotiq va diniy markazlaridan biri bo‘lib kelgan.

Toshkentning Mustaqillik maydoni O‘zbekistonning har bir fuqarosi uchun aziz va mo‘tabardir. Ayniqsa, keyingi yillarda mamlakatimizning bosh maydoni bo‘lmish bu yerda xalqimizning asriy urf-odatlarini, madaniyatini, qadriyatlarini va milliy me‘morlik an‘analari tobora teranroq aks etmoqda. Mustaqillik maydoni ko‘rkam maskanga, yaxlit va mukammal me‘moriy ansamblga aylanib bormoqda.

**(A.Ibrohimov. «Yorug‘lug‘» kitobidan)**

*Topshiriqlar:*

1. Matn mazmunini so‘zlab bering.
2. Reja tuzib, Vatanimiz poytaxti haqidagi o‘z taassurotlaringizni qo‘shib bayon yozing.

## **G‘URUR**

Ona tilimiz asrlar bo‘yi xalqimiz tomonidan zargarona sayqal berilib, shunday mukammal qilib yaratilganki, u orqali har qanday ma‘no va tushunchalarni, ularning eng nozik va harir jihatlarigacha aniq va tiniq ifodalash mumkin. Ya‘ni necha ming yillar davomida xalqimiz ongi to‘lishib boravergan, unda hosil bo‘lgan tushunchalar o‘z tub so‘zlarimiz bilan ham, o‘rnida jahon tillariga oid so‘zlar bilan ham, yangi-yangi so‘zlar yaratish vositasi bilan ham ifodalangan. Shu tariqa til bisoti boyib ketgan. Tilimizdagi g‘urur, faxr va iftixor so‘zlarini olib ko‘raylik. Bular bir-biridan muayyan darajada farqlanuvchi tushunchalarni ham bildiradi.

Shaxs g‘ururi – bu faxrdir. Har bir shaxs o‘zining yutuqlaridan mamnuniyat hissini tuyadi. Ota-ona qobil farzandlaridan, ustoz iste‘dodli shogirdidan, yozuvchi yaxshi asaridan, bog‘bon so‘lim bog‘idan faxrlanadi va hokazo.

Inson o‘z kuchiga ishongan va bu bilan faxrlana olgan taqdiridagina biror narsaga erisha oladi. Bu qadr-qimmatini anglash aqlli odamni yanada kamtarin, yanada sabotli qiladi. Kishi uchun o‘z qobiliyatidan ortiq darajada g‘ururlanish ham, o‘z-o‘zini yerga urish ham yaramaydi. O‘z- o‘zligicha qola bilgan odamning g‘ururi bus-butundir.

O‘ziga ortiqcha bino qo‘ymoq, gerdaymoq, kekkaymoq, dimog‘dorlik qilmoq- bular takabburlikka kiradi. Hadisi shariflarda aytilishicha, Alloh

eng yomon ko‘rgan narsalardan biri takabburlikdir. Hatto masjidga gerdayib kirgan odamning nomozi qabul bo‘lmas ekan. «Manmanlik zavolga, kamtarlik kamolga yetaklaydi», degan naql shunga ishora bo‘lsa kerak. Kishi shunday yashashi joizki, uning yutuqlaridan o‘zi ham g‘ururlansin, lekin undan ko‘ra ko‘proq oila a‘zolari, xesh-aqrabolari, mahalla-ko‘yi, qolaversa, butun mamlakati faxrlansin, faxrim deb e‘zozlasin.

(A. Ibrohimov. «Yorug‘l ug‘» kitobidan)

*Topshiriqlar:*

1. Matn mazmunini so‘zlab bering.
2. Reja tuzib, hududingizdagi g‘urur-iftixorga loyiq insonlar hayotidan lavhalar keltirib bayon yozing.

### OQKO‘NGILLIK

Oqko‘ngil odam har qachon boshqalar baxtiga, ularning xizmatdagi yo shaxsiy hayotdagi yutuqlariga xuddi o‘z baxti, o‘z yutug‘i kabi qarab quvonadi. Agar bu quvonch zamiriga chuqurroq razm solinsa yuksak, olijanob bir ma‘no tantanasi ko‘zga chalinadi. Oqko‘ngil odam shaxslar baxtida jamiyat baxtining in‘ikosini ko‘radi!

Lekin ichiqora, baxil, ziqna odam birovning baxtini ham, yutug‘ini ham ko‘rolmaydi. Bundaylar ichiqoralik qilib: «Menda-ku yo‘q, senda nima uchun bo‘lishi kerak!» deyilar-da, baxillik qutqusining qullari bo‘lib qoladilar.

Xo‘sh bunday yaramas qiliq, ya‘ni baxillik qayerdan paydo bo‘ladi?

Albatta, baxillik qon yo‘jon bilan o‘tadigan fiziologik hodisa emas. Har qanday chaqaloq yaxshi fazilatni ham, yomon illatni ham keyin- yashash, o‘sh jarayonida orttiradi. Agar shunday bo‘lmasa, yomon xulq-atvorli ota-onaning bolasi har vaqt yomon, yaxshi xulq-atvorli ota-onaning bolasi har vaqt yaxshi bo‘lib o‘shishi kerak edi. Ammo hayotda, haqiqatda bunday emas. Aslida bolani chinakam inson qilib yetishtiradigan, uni yomon xulq-atvordan saqlab tarbiyalaydigan eng katta, eng boobro‘ murabbiy — ota-ona, oila muhiti yo‘shu oilada ota-ona o‘rnini bosgan katta yoshli odamlardir. Bular nazorati bo‘lmasa, maktab ham, jamoat tashkilotlari ham qiyin ahvolga tushib qoladi. Shunisi ham borki, har bir ota-ona bolasining xulq-atvori, aqliy-jismoniy tomoni qanday bo‘lishidan qat‘i nazar kam-ko‘stisiz o‘shisini, oilada, hayotda baxtli bo‘lishini istaydi. Shu tabiiy istak mayli bilan ba‘zi oilalarda ota-onalar bolalarini kichikliklarida qo‘g‘irchoqdek yasatishadi, qo‘llarini sovuq suvga urdirmay papalashadi, erkato‘y, tantiq qilib o‘stirishadi. Natijada bunday bolalar injiq, ichi tor, ziqna bo‘lib yetishadi. Bularda boriga qanoat qilish, yo‘g‘iga ko‘nikish xislati bo‘lmaydi. Aksincha, ko‘ngillari tusagan narsani har qanday tadbir bilan, harom-xarish yo‘llar bilan bo‘lsa ham muhayyo qilish taraqqiy topadi. Agar mana shunday mayl tomiri vaqtida qirqilmasa, u bolani oxirda ma‘nan mayib qiladi. Bunaqa bola ota-onasining qudratli panohidan havolanib, uyida hech kimning gapini quloqqa olmaydi, maktabda sinfdoshlarini, hatto muallimlarini ham nazariga ilmaydi,

jamoada hamma o‘zini baravar tutishi kerakligini pisand qilmaydi. Bu xulq-atvor bolani katta hayot qiyinchiliklaridan, ya‘ni har qanday bola katta bo‘lganida duch keladigan mehnat mashaqqatlaridan qo‘rqadigan qilib qo‘yadi.

(M. Ismoiliy «Inson husni» kitobidan)

*Topshiriqlar:*

1. Reja tuzing
2. Matn mazmuniga ijodiy yondashgan holda bayon yozing.

### OTA – AQL, ONA – IDROK

Odatda otani padari buzrukvor, onani esa mehribon volida deymiz. Chunki, har bir inson uchun otadan ulug‘ va qadrdon, onadan mehribon va yaqin kishi yo‘q. Haqiqatan ham, ota-ona buyuk zotlardir. Ular siz bilan bizni dunyoga keltirib, ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylab voyaga yetkazibgina qolmasdan, hamma vaqt quyosh yanglig‘ hayotimizga nur sochib turadilar, bamisoli oy kabi tunimizni yorug‘, yo‘limizni oydin qiladilar. Shu boisdan ham, eng go‘zal dostonlar, eng yaxshi qo‘shiqlar, eng yoqimli kuylarning ana shu ulug‘ zotlarga bag‘ishlangani bejiz emas. Ota-ona qadri, ularga mehr-muhabbat g‘oyasi xalq og‘zaki ijodi asarlarida ham samimiyat bilan kuylanib kelindi.

«Otani — quyosh, onani — Oy deb bilgan xalqimiz ularning qadriga yetish, e‘zozlash, boshga ko‘tarish, padari buzrukvorning tuz haqini, volidai mehribonning sut haqini oqlash har bir o‘g‘il-qizning vijdoniy burchi ekanligini alohida uqtiradi.

«Quyoshdan so‘rashibdi: Sening haroratingdan zo‘rroq harorat bormi?»

«Bor — javob beribdi Quyosh, — Ona mehri mening taftimdan ham kuchliroq».

O‘limdan so‘rashibdi: «Senga bas keladigan kuch bormi dunyoda?»

«Bor! — deb javob beribdi o‘lim». — «Ona mehri meni ham chekintiradi».

Daryoi azimdan so‘rashibdi: «Sendan kuchliroq jonzot bormi dunyoda?»

«Bor! — debdi Daryoi azim. «Ona mehri mendan kuchliroq, zo‘rroq»...

Ha, Ona mehri toshni eritadi, qahri tog‘ni qulatadi, daryoni jilovlay oladi...

Quyosh-haroratini, Oy-nurini, hayot-go‘zalligini Onadan olgan, deydi xalq. Tabiat tarovati, gullar isi, hayot nashidasi, inson ko‘rkamligi, odamiyligi, inson aql-idroki, fahm-farosati-bari-barisi onaizordan!

Dunyoda purma‘no bir so‘z bor, men undan ortiq va yoqimliroq so‘zni bilmayman. Bu — «Ota-onangga rahmat», degan yoqimli so‘zdir.

(Malik Murodov «Oltin sandiq ochildi» to‘plamidan)

*Topshiriqlar:*

1. Reja tuzing.
2. Matn mazmunini o‘zlashtirgan holda ota-ona haqidagi hikmatli so‘z va maqollardan foydalanib hamda ota-ona qadri xususidagi fikr-mulohazalaringizni qo‘shib bayon yozing.

## РУССКИЙ ЯЗЫК ДЛЯ ШКОЛ С УЗБЕКСКИМ И ДРУГИМИ ЯЗЫКАМИ ОБУЧЕНИЯ

Итоговая аттестация в 9 классах школ с узбекским и другими языками обучения проводится в устной форме. На аттестации учащимся предоставляется возможность показать свои знания, умения и навыки в устной разговорной речи, приобретённые за весь учебный период в общеобразовательной школе. Аттестационный материал состоит из 25 билетов. В каждом билете по три задания.

Цель первого задания состоит в выявлении и оценке знаний выпускников по изученным грамматическим материалам, умений составления самостоятельных высказываний по определённой теме и приобретённых навыков по самостоятельному употреблению изученных конструкций в речи. Объём текста высказываний должен состоять из 7-8 предложений (70-80 слов).

Целью второго задания является проверка и оценка знаний учащихся по содержанию изученных текстов, умений определять главную мысль прочитанного текста своими словами через призму своего восприятия. А также учитывается техника беглого и правильного чтения вслух, соблюдение интонации.

Цель третьего задания – проверка и оценка знаний выпускников по соблюдению правил интонации, умений правильного произношения звуков русской речи и навыков по выразительному чтению наизусть.

Конверт с экзаменационными заданиями, подготовленные методическими объединениями, запечатанные и проштампованные директором, вскрываются в момент начала аттестации председателем аттестационной комиссии в присутствии всех учеников, о чём составляется акт, о вскрытии конвертов.

На подготовку отводится 15 минут.

### Критерии оценки

№	Критерий оценок	Баллы
1	Беглое и выразительное чтение, чтение наизусть стихотворений, правильное произношение слов, правильная расстановка интонаций в предложениях, полное восприятие общего содержания прочитанного текста и составление самостоятельных высказываний.	5
2	Беглое и выразительное чтение, но при этом учащимся допускаются ошибки в произношении отдельных слов. Знание общего содержания и отдельных частей текста.	4

*продолжение*

№	Критерий оценок	Баллы
3	При беглом и выразительном чтении учащийся допустил ошибки в произношении слов и интонировании предложений, воспринял общее содержание текста, но не смог рассказать его отдельных частей.	3
4	Допустил большое количество ошибок, понял смысл отдельных предложений, но не сумел передать основную мысль прочитанного текста.	2
5	Прочитал текст с большим количеством речевых ошибок, воспринял смысл лишь отдельных слов и словосочетаний.	1

### БИЛЕТ 1

1. Расскажите, как вы проводите свободное время.
2. Прочитайте выразительно стихотворение «Шаганэ, ты моя Шаганэ».
3. Выразительное чтение наизусть стихотворения С. Есенина (на выбор).

### БИЛЕТ 2

1. Расскажите о символах нашей Родины.
2. Прочитайте и перескажите отрывок из биографии А.С.Пушкина.
3. Наизусть стихотворение Н.М.Рубцова «Детство».

### БИЛЕТ 3

1. Составьте текст на тему: «Моя будущая профессия».
2. Расскажите биографию Н.М.Рубцова.
3. Наизусть одно из любимых стихотворений.

### БИЛЕТ 4

1. Расскажите о любимом виде спорта.
2. Прочитайте выразительно отрывок из стихотворения Б.Л.Пастернака «Во всём мне хочется дойти».
3. Наизусть стихотворение А.С.Пушкина (на выбор).

### БИЛЕТ 5

1. Составьте текст на тему: «В мире музыки» с использованием изученных конструкций.
2. Расскажите биографию С.А.Есенина.
3. Наизусть стихотворение Булата Окуджавы «Чёрный мессер».

### БИЛЕТ 6

1. Расскажите, почему вы хотите знать русский язык.
2. Прочитайте стихотворение Юлии Друниной «Зинка» и перескажите его содержание.
3. Наизусть стихотворение С.Орлова «Его зарыли в шар земной».

### БИЛЕТ 7

1. Составьте текст на тему «Египетские пирамиды» с использованием изученных конструкций.
2. Прочитайте и перескажите отрывок из рассказа М.А. Шолохова «Судьба человека».
3. Наизусть стихотворение С.Гудзенко «Надпись на камне».

### БИЛЕТ 8

1. Расскажите о известных учёных-энциклопедистах.
2. Прочитайте отрывок из биографии А.Платонова и перескажите его содержание.
3. Наизусть стихотворение Н.С.Гумилёва «Жирафы».

### БИЛЕТ 9

1. Составьте текст на тему «Мода и стиль» с использованием изученных конструкций.
2. Расскажите биографию Н.А.Шолохова.
3. Наизусть стихотворение С.Есенина «Черёмуха».

### БИЛЕТ 10

1. Прочитайте и расскажите текст о жизни Мухаммада аль Хорезми.
2. Расскажите биографию А.Т.Твардовского.
3. Наизусть своё любимое стихотворение.

### БИЛЕТ 11

1. Расскажите о том, что вы можете сделать, чтобы сохранить природу.
2. Прочитайте отрывок из поэмы А.Т.Твардовского «Василий Теркин» главу «Кто стрелял?». Перескажите его содержание.
3. Наизусть стихотворение Н.М. Рубцова «В горнице».

### БИЛЕТ 12

1. Составьте текст на тему «Мои любимые цветы» с использованием изученных конструкций.
2. Прочитайте отрывок из первой части рассказа А.П.Платонова «Юшка». Перескажите её содержание.
3. Наизусть стихотворение Б.Л.Пастернака «Снег идёт».

### БИЛЕТ 13

1. Расскажите о любимом времени года.
2. Прочитайте отрывок из II-части рассказа А.П.Платонова «Юшка». Перескажите её содержание.
3. Наизусть стихотворение С.Есенина «Низкий дом с голубыми ставнями».

### БИЛЕТ 14

1. Составьте рассказ на тему «Как появились деньги», с использованием изученных конструкций.
2. Прочитайте и перескажите содержание отрывка из III-части рассказа А.П.Платонова «Юшка».
3. Наизусть стихотворение С.А.Есенина «Свет вечерний шафранного края».

### БИЛЕТ 15

1. Расскажите о флоре и фауне нашей Республики.
2. Прочитайте и перескажите биографию А.М.Горького.
3. Наизусть стихотворение Н.С.Гумилёва «Капитаны».

### БИЛЕТ 16

1. Расскажите о Конституции Республики Узбекистан.
2. Прочитайте стихотворение Н.С.Гумилёва «Капитаны».
3. Расскажите наизусть любимое стихотворение.

### БИЛЕТ 17

1. Составьте рассказ на тему. «В мире искусства» (о балете, театре, музыке, живописи).
2. Прочитайте выразительно стихотворение С.Гудзенко «Надпись на камне».
3. Наизусть стихотворение Б.Окуджава «Чёрный мессер».

### БИЛЕТ 18

1. Что вы можете рассказать о тайнах XX века.
2. Прочитайте выразительно стихотворение Н.М.Рубцова. Расскажите о детстве поэта.
3. Наизусть отрывок из стихотворения Ю. Друниной «Зинка».

### БИЛЕТ 19

1. Составьте текст на тему «Парфюмерия и косметика» с использованием изученных конструкций.
2. Прочитайте текст и перескажите его содержание (на выбор).
3. Наизусть стихотворение С.А.Есенина «Шаганэ, ты моя Шаганэ».

### БИЛЕТ 20

1. Составьте текст на тему «Мои увлечения».
2. Перескажите биографию А.Т.Твардовского. Какие крупные произведения написаны поэтом?
3. Наизусть одно из любимых стихотворений С.А.Есенина.

### БИЛЕТ 21

1. Составте рассказ на тему «Олимпийские игры».
2. Прочитайте текст и перескажите его содержание (на выбор).
3. Наизусть одно из стихотворений русских поэтов о природе.

### БИЛЕТ 22

1. Составте рассказ на тему: «Моя семья».
2. Расскажите о последних годах жизни Н.Рубцова.
3. Наизусть стихотворение Н.М.Рубцова «Детство».

### БИЛЕТ 23

1. Составте рассказ на тему: «Исторические города Узбекистана» (Самарканд, Бухара, Хива и др.).
2. Расскажите о теме природы в творчестве С. Есенина.
3. Прочитайте наизусть стихотворение С.Орлова «Его зарыли в шар земной»

### БИЛЕТ 24

1. Составте рассказ на тему: «Каким должен быть настоящий специалист?»
2. Прочитайте отрывок из биографии М.Ю.Лермонтова. Перескажите его содержание.
3. Наизусть одно из стихотворений А.С.Пушкина (на выбор).

### БИЛЕТ 25

1. Составте текст на тему: «Обсерватория Улугбека».
2. Прочитайте текст и перескажите его содержание (на выбор).
3. Наизусть одно из стихотворений М.Ю.Лермонтова (на выбор).

### 9-SINF TARIX TUSHUNTIRISH XATI

«Tarix» fanidan yakuniy attestatsiya imtihonlari uchun taklif etilayotgan mazkur topshiriqlar umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari asosida tayyorlangan. Bunda topshiriqlar biletlarda aks ettirilgan bo'lib, har bir biletida uchtadan savol beriladi:

1. Jahon yoki O'zbekiston tarixida mavjud bo'lgan biror-bir davlatning tashkil topishiga oid savol beriladi va o'quvchi mazkur savolga quyida belgilangan baholash mezonlari asosida javob berishi kerak bo'ladi.

Na'muna uchun savol: Xiva xonligining tashkil topishi.

#### Birinchi savol bo'yicha o'quvchilarning bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

№	Baholash mezonlari	Ball
1	Davlatning tashkil etilgan davri yoki sanasini to'g'ri ayta olsa	1
2	Davlatga asos solgan shaxs nomini bilsa (agar asoschi nomi darslikda bo'lmasa, boshqa hukmdorlar nomini sanash lozim)	1
3	Davlat tashkil etilishidagi shart-sharoit haqida ma'lumot bersa	2
4	Davlat paydo bo'lgan hududni zamonaviy xaritadan ko'rsata olsa	1
5	Jami:	5

2. O'zbekiston va Jahon tarixi darsida o'rganiladigan biror-bir mavzu beriladi. Masalan: Afina demokratiyasi.

#### Ikkinchi savol bo'yicha o'quvchilarning bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

№	Baholash mezonlari	Ball
1	tarixiy hodisalarning joyini aniqlab, tarixiy xaritadan voqea sodir bo'lgan joyini topa olishi	1
2	tarixiy voqea va hodisalarni taqqoslab va qiyoslab, xulosa chiqara olishi	1
3	tarixiy hodisa va jarayonni og'zaki ravon nutqda bayon qila olishi	1
4	tarixiy atamalarning mazmunini bilishi va o'z o'rnida to'g'ri ishlata olishi	1
5	tarixiy voqealarning aniq tarixiy davri yoki sodir bo'lgan sanasini to'g'ri ayta olishi	1
	Jami:	5



3. Biletidagi uchinchi topshiriq dunyo ilm-fani va madaniyatiga hissa qo'shgan O'rta Osiyolik allomalardan biri haqidagi savoldan iborat bo'ladi. Masalan: Abu Rayhon Beruniy.

Uchinchi savol bo'yicha o'quvchilarning bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

№	Baholash mezoni	Ball
1	Allomaning yashagan yillarini yoki yashagan davrini ayta olsa	1
2	Allomaning hayoti haqida ma'lumot bersa	1
3	Qaysi fan sohalarida ijod qilganligi haqida ma'lumot bersa	1
4	Allomaning yozgan asarlarini sanab, ayrimlarining mohiyatini ochib bersa	1
5	O'zbekistonda allomaning yubileyi nishonlanishiga yoki xotirasi tiklanishiga oid ma'lumot bersa	1
Jami:		5

**Izoh:** har bir yo'nalish bo'yicha chiqqan ballar yaxlitlanib (Bunda yaxlitlangan ball 4,5 dan past bo'lsa – 4 baho, yuqori bo'lsa – 5 baho. Masalan:  $5+4+5=14:3=4,6$  yaxlitlansa 5 baho,  $4+4+5=13:3=4,3$  yaxlitlansa 4 baho), yakuniy attestatsiya imtihoni sinovining yakuniy bali sifatida sinf jurnalining «O'zbekiston tarixi» sahifasiga qo'yiladi.

**Eslatma:** O'quvchilarga bilet olganlaridan keyin tayyorgarlik ko'rishlari uchun 15, javob berish uchun esa 10–15 daqiqa vaqt beriladi.

Imtihon savollariga maktab metod birlashmasi qarori bilan tuzatishlar, qo'shimchalar va takliflar kiritilishi mumkin. Imtihon topshirish jarayonida o'quvchi o'z fikrini faqat darslik materiallari asosida emas, balki boshqa manbalarga tayangan holda ham bayon qilishi mumkin. Shuningdek, tarix fani chuqurlashtirib o'qitiladigan sinf va maktablarda imtihon biletleri 4 ta savoldan iborat bo'ladi. Tarix fani chuqurlashtirib o'qitiladigan sinf va maktablarning imtihondagi to'rtinchi savol maktab metod birlashmasi tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi. Savol tuzishda Prezident Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch», «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» nomli asarlari, «Dunyo dinlari tarixi» darsligi, tarixning arxeologiya, etnografiya bo'limlariga oid ma'lumotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

### 1-BILET

1. Buxoro amirligining tashkil topishi.
2. Yevropada Uyg'onish davri madaniyati.
3. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy.

### 2-BILET

1. Ahamoniylar davlatining tashkil topishi.

2. Buyuk i pakyo'lining tarmoqlari.
3. Mahmudxo'ja Behbudiy.

### 3-BILET

1. Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi.
2. Afinada demokratiyaning tashkil etilishi.
3. Zahiriddin Muhammad Bubur.

### 4-BILET

1. G'aznaviylar davlatining tashkil topishi.
2. Niderlandiya burjua inqilobi va uning ahamiyati.
3. Alisher Navoiy.

### 5-BILET

1. Qo'qon xonligining tashkil topishi.
2. Qadimgi Mesopotamiya davlati madaniyati.
3. Abu Rayhon Beruniy

### 6-BILET

1. Bobil podsholigining tashkil topishi.
2. Amir Temur-buyuk sarkarda va davlat arbobi.
3. Ahmad al-Farg'oniy.

### 7-BILET

1. Toshkent bekligining tashkil topishi.
2. Zardushtiylik dini va uning ta'limoti.
3. Imom al-Buxoriy.

### 8-BILET

1. Kushon davlatining tashkil topishi.
2. Buyuk geografik kashfiyotlar va ularning ahamiyati.
3. Abu Mansur al-Moturidiy.

### 9-BILET

1. Franklar davlatining tashkil topishi.
2. Markaziy Osiyo xalqlarining yunon-makedon bosqinchilariga qarshi kurashi.
3. Abu Ali ibn Sino.

### 10-BILET

1. Safaviylar davlatining tashkil topishi.
2. Arab xalifaligi tomonidan Movarounnahrning egallanishi.
3. Bahouddin Naqshband.

### 11-BILET

1. Tohiriylar davlatining tashkil topishi.
2. Dastlabki Salib yurishlari.
3. Abu Nasr Farobiy.

### 12-BILET

1. Ashtarxoniylar davlatining tashkil topishi.
2. Fransiya-Prussiya urushi.
3. Shermuhammad Munis.

### 13-BILET

1. Yunon-Baqtriya podshohligining tashkil topishi.
2. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Angliyaning tashqi siyosati.
3. Mirzo Ulug'bek.

### 14-BILET

1. Turk xoqonligining tashkil topishi.
2. Birinchi jahon urushi va uning oqibatlari.
3. Kamoliddin Behzod.

### 15-BILET

1. Arab xalifaligining tashkil topishi.
2. Jadidlar, ularning dasturiy maqsad va vazifalari.
3. Berdimurod Qarg'aboy og'li – Berdaq.

### 16-BILET

1. Boburiylar imperiyasining tashkil topishi.
2. Rossiya imperiyasi tomonidan Qo'qon xonligining bosib olinishi va Farg'ona viloyatining tashkil etilishi.
3. Mirzo Abdulqodir Bedil.

### 17-BILET

1. Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi.
2. Yuz yillik urushning boshlanish sabablari.
3. Mohlaroyim – Nodira.

### 18-BILET

1. Rossiya imperiyasining tashkil topishi.
2. Mo'g'ullarga qarshi Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro boshchiligidagi ozodlik kurashlari.
3. Ahmad Donish.

### 19-BILET

1. Taypinlar davlatining tashkil topishi.

2. Arab xalifaligi tomonidan Movarounnahrning egallanishi.
3. Burhonuddin Marg'ioniy.

### 20-BILET

1. Boburiylar davlatining tashkil topishi.
2. O'zbekiston hududidagi ilk davlatlar.
3. Abulg'oziy Bahodirxon.

### 21-BILET

1. Saljuqiylar davlatining tashkil topishi.
2. Buxoroda mang'itlar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi.
3. Mahmud az-Zamaxshariy.

### 22-BILET

1. Eftallar davlatining tashkil topishi.
2. Xammurappi qonunlari.
3. Muhammad Rizo Ogahiy.

### 23-BILET

1. Amir Temur davlatining tashkil topishi.
2. Buyuk Karlning harbiy yurishlari.
3. Fazliy Namangoniy.

### 24-BILET

1. Muqaddas Rim imperiyasining tashkil topishi.
2. O'rta Osiyoda Shayboniylar hukmronligining o'rnatilishi.
3. Ahmad Yassaviy.

### 25-BILET

1. Vizantiya imperiyasining tashkil topishi.
2. Turkiston general-gubernatorligining ma'muriy- siyosiy tizimi.
3. Boborahim Mashrab.

### 26-BILET

1. Dehli sultonligining tashkil topishi.
2. Toshkentda «vabo isyoni» ning boshlanishi, uning sabablari, oqibatlari va ahamiyati
3. Munavvar Qori Abdurashidxonov.

### 27-BILET

1. Yunon-Baqtriya davlatining tashkil topishi.
2. Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga istilochilik yurishlarining boshlanishi.
3. Abdulla Avloniy.

### 28-BILET

1. Safforiylar davlatining tashkil topishi.
2. Yevropada revormatsiya.
3. Imom al-Buxoriy.

### 29-BILET

1. Salavkiylar davlatining tashkil topishi.
2. Buyuk fransuz burjua inqilobi va monarxiyaning tugatilishi
3. Jaloliddin Rumiy.

### 30-BILET

1. Vizantiya imperiyasining tashkil topishi.
2. Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi.
3. Ahmad al-Farg'oniy.

---

---

### JISMONIY TARBIYA TUSHUNTIRISH XATI

Yurtboshimiz Islom Karimov alohida ta'kidlaganlaridek, sog'lom xalq, sog'lom millatgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi. Shu boisdan yosh avlodning har tomonlama barkamol bo'lib yetishishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

O'quvchining sog'lom bo'lib voyaga yetishi, iqtidor va qobiliyatiini namoyon eta olishi orqali jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi uchun unga beriladigan tarbiya o'ta muhim omil hisoblanadi.

Yakuniy nazorat imtihonini o'tkazishdan asosiy maqsad, DTS va o'quv dasturida berilgan mezon talablari asosida o'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini baholash maqsadida o'tkazishdir.

Jismoniy tarbiya fanidan IX sinf o'quvchilari yakuniy nazorat imtihon materiallarini (amaliy va nazariy qismlari uchun) topshiradi. Hay'at a'zolari tarkibi maktab direktori tomonidan tasdiqlanadi, uning tarkibi jami 3 kishidan iborat bo'lib, unga imtihon raisi, jismoniy tarbiya o'qituvchisi (imtihon qabul qiluvchi), assistent (yordamchi) kiradi. Imtihonning amaliy qismida tibbiy xodim bo'lishi shart.

Imtihon materiallari, maktab sport maydoni (zali) hamda sport anjomlari oldindan talab darajasida tayyorlab qo'yilishi kerak. Bu bo'yicha maktab rahbariyati va jismoniy tarbiya fan o'qituvchilari ma'suldir.

O'quvchilar jismoniy tarbiya fanidan yakuniy nazorat imtihonlarini ijobiy topshirishiga tayyorlash uchun maktabda qo'shimcha darslar olib borilish jadvali tuzilishi lozim. Unda nazariy ma'lumotlar bo'yicha ma'ruza hamda amaliy mashg'ulotlar o'tkazilib borilishi zarur.

Tibbiyot muassasalari tomonidan jismoniy tarbiya mashg'ulotlaridan ozod etilishi to'g'risidagi ma'lumotnomaga ega bo'lgan o'quvchilar yakuniy nazorat imtihonidan ozod e'tiladilar.

Yakuniy imtihonining amaliy va nazariy qismlari bir kunda o'tkazilishi lozim. Dalolatnoma va bayonnomalar imtihon jarayonida to'ldirib borilishi shart. Bayonnomalarda o'quvchilarning topshirgan me'yoriy natijalari aniq yozib borilishi lozim.

Amaliy qismni topshirish uchun sinf ikki guruhga, o'g'il va qiz bolalarga bo'linadi. Har bir guruhdan bittadan o'quvchi bilet tortadi. Shu tortilgan bilet bo'yicha guruh a'zolarining barchasi amaliy qismni topshirishadi.

Amaliy mashg'ulotlar natijalari qabul qilingach, nazariy qismga o'tiladi. Nazariy qism oldindan tayyorlab qo'yilgan sinf xonasida bo'lib o'tadi. Bunda barcha o'quvchilar bittadan nazariy bilet tortadilar hamda oldindan muhrlangan varaqlarga yozma ravishda javob beradilar.

## 1. Yakuniy nazorat imtihon dalolatnomasini to'ldirish namunasi.

### D A L O L A T N O M A

Tuzildi ushbu dalolatnoma, shu haqdakim. Biz kim dalolatnoma tuzuvchilar:

Yakuniy nazorat imtihoni hay'ati raisi \_\_\_\_\_ (F.I) \_\_\_\_\_, imtihon oluvchi o'qituvchi \_\_\_\_\_ (F.I) \_\_\_\_\_, imtihon hay'ati a'zosi (assistent) \_\_\_\_\_ (F.I) \_\_\_\_\_ lar 2012 yil « \_\_\_\_ » may kuni \_\_\_\_\_ maktabning \_\_\_\_\_ sinf yakuniy nazorat imtihonidan amaliy mashg'ulot biletleri ochildi. Sinf o'quvchilaridan nafar ishtirok etdi.

Amaliy: O'g'il bolalardan \_\_\_\_\_ (F.I) \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_\_ bilet tortildi.  
Qiz bolalardan \_\_\_\_\_ (F.I) \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_\_ bilet tortildi.

Imtihon hay'ati raisi: \_\_\_\_\_ (F.I) \_\_\_\_\_  
Imtihon oluvchi o'qituvchi: \_\_\_\_\_ (F.I) \_\_\_\_\_ M.O' : \_\_\_\_\_  
Imtihon assistent o'qituvchi: \_\_\_\_\_ (F.I) \_\_\_\_\_

## 2. Yakuniy nazorat imtihon bayyonomasini to'ldirish namunasi.

2012 yil \_\_\_\_\_ -may № \_\_\_\_\_ umumiy o'rta ta'lim maktabi  
\_\_\_\_\_ -sinf \_\_\_\_\_ (o'g'il, qiz bolalar) Bilet № \_\_\_\_\_

### B A Y Y O N O M A S I

№	O'quvchi-larning F.I.	60 m yugurish		Gimnastika		Basketbol		Turgan joydan uzunlikka sarash		Nazariy		Umumiy ball
		natija	ball	natija	ball	natija	ball	natija	ball	Bilet	ball	
1	Tohirov O'.	10,5	5		4	4	4	140	4	15	4	4
2												
3												

Imtihon hay'ati raisi: \_\_\_\_\_ (F.I) \_\_\_\_\_  
Imtihon oluvchi o'qituvchi: \_\_\_\_\_ (F.I) \_\_\_\_\_  
Imtihon assistent o'qituvchi: \_\_\_\_\_ (F.I) \_\_\_\_\_

M.O' : « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2012 yil

## Nazariy savollarga berilgan javoblarni baholash mezonlari

№	Baholash mezonlari	Ball
1	Savol mazmunan to'la ochib berilsa, fikrlari to'liq va aniq bo'lsa	5
2	Javoblar to'g'ri, lekin ikkilanish va taxmin bo'lsa	4
3	Javoblar qisman to'g'ri, tushunchalarni izohlashda bir qancha xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa	3
4	Javoblar to'g'ri xulosalanmagan, fikrlar va tushunchalarida xatolar ko'p bo'lsa	2
5	Tushunchalar noto'g'ri talqin etilgan, javoblarda xato bo'lsa	1

## Amaliy mashg'ulotlarni baholash mezonlari

№	Baholash mezonlari	Ball
1	Talab qilingan mashqlarni bajarishda mashq elementlari o'rtasidagi bog'lanish to'g'ri ishonchli bajarilsa	5
2	Talab qilingan mashq erkin, ishonchli elementlarga bog'liq holda bajarilib, 2 tadan ortiq juz'iy xatoga yo'l qo'yilsa	4
3	Mashq qisman bajarilsa, lekin bitta qo'pol xatoga va 1 ta juz'iy xatoga yo'l qo'yilsa	3
4	Mashq bajarishda 3 tadan ortiq va juz'iy qo'pol xatoga yo'l qo'yilsa	2
5	Mashq bajarishda harakat sust bo'lsa, mashq bajarilmasa	1

## NAZARIY SAVOLLAR

- O'zbekistonda ommaviy sport turlari qaysilar?
- Olimpiya o'yinlarini kelib chiqish tarixi.
- Yengil atletika darsida qanday jismoniy sifatlari rivojlantiriladi?
- «Alpomish» ba «Barchinoy» maxsus test sinovlari qachon va nima maqsadda Respublikamizga joriy etildi hamda u o'z ichiga nechki yoshda bo'lgan aholini qamrab oladi?
- «Xari»dan sakrashda qanday usulga e'tibor qaratish kerak? Qo'l va oyoq muskullariga foydali jihatlari qanday?
- Chidamlilik deb nimaga aytiladi va uni rivojlantirish yo'llari?
- Kurash bilan shug'ullanishdan oldin qanday jismoniy tayyorgarlik mashqlari bajariladi?
- Arqonga tirmashib chiqish usullari va ularni bajarish tartibi.
- Voleybol to'pini uzatishning qanday usullari mavjud?
- Tennis to'pini uloqtirishda qo'l va oyoq harakat qoidalarini tushuntirib bering?
- «Paxtakor» futbol jamoasi qachon tashkil etilgan va u haqida nimalarni bilasiz?

12. «Umid nihollari» sport musobaqalari qachondan boshlab o'tkazilib kelinmoqda? U qanday sport turlaridan iborat?

13. Voleybol o'yini maydonininig o'lchami, to'pining og'irligi haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?

14. Kross yugurishni oddiy yugurishdan farqi nimada?

15. Egiluvchanlik deb nimaga aytiladi va uni rivojlantirish uslublarini aytib bering?

16. Suzishning qanday usullarini bilasiz?

17. O'zbekistonda voleybol o'yini qachondan boshlab o'ynaladi va voleybol to'pini og'irligi, aylanasi uzunligi qancha?

18. Gimnastika va uning turlarini aytib bering?

19. Chaqqonlik deb nimaga aytiladi? Chaqqonlikni rivojlantirish uchun beriladigan mashqlarni tushuntirib bering?

20. Maktab jismoniy tarbiya dasturiga qaysi sport turlari kiritilgan?

21. O'zbekistonda futbol komandasi qachon tashkil etilgan va futbol to'pini aylanasini uzunligi va og'irligi qancha?

22. Basketbol maydonining umumiy o'lchami, to'pining og'irligi va diametri haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?

23. Qo'l to'pi o'yinining paydo bo'lish tarixi va O'zbekistonga kirib kelishi.

24. Epchillik deb nimaga aytiladi va uni rivojlantirish yo'llari?

25. «Yengil atletika» nechta bo'limga bo'linadi va ularni sanab bering?

26. Futbol o'yinida ishatiladigan atamalarni aytib bering?

27. Jismoniy mashqlarni bajarish vaqtida o'z-o'zini muhofaza qilish.

28. Akrobatik mashqlar va ularning turlari haqida nimalarni bilasiz?

29. Vitaminlar, ularni kishi organizmdagi roli.

30. Mustaqil shug'ullanish vaqtida va jismoniy tarbiya darslarida shikastlanganda birinchi yordam ko'rsatish va texnika xavfsizligi.

## AMALIY SINOV-MASHQLARI (QIZ BOLALAR)

### 1-BILET

**1. Yengil atletika:** 60 metrga yugurish.

*Me'yor:* (sek) 9,5 – 10,0 – 10,5 – 11,0;

**2. Gimnastika:** Arg'amchida 1 daqiqa davomida sakrash.

*Me'yor:* (marta) 100 – 90 – 80 – 75;

**3. Voleybol:** 1,5 m radiusli aylana ichida voleybol to'pini bosh ustidan 1 daqiqa davomida yuqoriga oshirish va qabul qilish.

*Me'yor:* (marta) 20 – 15 – 10 – 5;

**4. Yengil atletika.** Yugurib kelib uzunlikka sakrash.

*Me'yor:* (sm); 350 – 320 – 300 – 280;

### 2-BILET

**1. Yengil atletika:** Tennis to'pini (150 gr) uzoqqa uloqtirish.

*Me'yor:* (metr); 28 – 23 – 18 – 13.

**2. Gimnastika:** 110 sm balandlikdagi uzunasiga o'rnatilgan xari ustidan oyoqlarni kerib, sakrab o'tish.

*Me'yor:* Texnikasiga ahamiyat qaratish.

**3. Basketbol:** Basketbol to'pini 8 imkoniyatdan jarimadan tashlash.

*Me'yor:* (aniq otilgan to'plar soni / marta); 4 – 3 – 2 – 1;

**4. Yengil atletika:** 1000 metrga yugurish.

*Me'yor:* (daq/sek); 5,00 – 5,30 – 6,00 – 6,30.

### 3-BILET

**1. Yengil atletika:** 4x10 m ga mokisimon yugurish.

*Me'yor:* (sek) 10,0 – 10,5 – 11,0 – 11,5;

**2. Gimnastika:** Gimnastik o'rindiqqa tayanib, qo'llarni bukish va yozish.

*Me'yor:* (marta) 13 – 10 – 8 – 6;

**3. Qo'l to'pi:** Qo'l to'pini 30 metr masofaga to'pni urib yugurish.

*Me'yor:* (sek); 6,8 – 6,9 – 7,0 – 7,2.

**4. Yengil atletika:** Tennis to'pini (150 gr) uzoqqa uloqtirish.

*Me'yor:* (metr); 28 – 23 – 18 – 13.

### 4-BILET

**1. Yengil atletika.** Yugurib kelib uzunlikka sakrash.

*Me'yor:* (sm); 350 – 320 – 300 – 280;

**2. Gimnastika.** Chalqancha yotgan holatda 1 daqiqa davomida gavdani ko'tarish.

*Me'yor:* (marta); 23 – 20 – 15 – 13.

**3. Voleybol:** 1,5 m radiusli aylana ichida voleybol to'pini bosh ustidan 1 daqiqa davomida yuqoriga oshirish va qabul qilish.

*Me'yor:* (marta); 20 – 15 – 10 – 5;

**4. Yengil atletika:** 1000 metrga yugurish.

*Me'yor:* (daq/sek); 5,00 – 5,30 – 6,00 – 6,30.

### 5-BILET

**1. Yengil atletika:** Turgan joyidan uzunlikka sakrash.

*Me'yor:* (sm); 190 – 170 – 150 – 130.

**2. Gimnastika:** Ikki marta oldinga, orqaga o'mbaloq oshish, kurakda turish. «Ko'prik» hosil qilish.

*Me'yor:* Texnikasiga ahamiyat qaratish.

**3. Basketbol:** Basketbol to'pini 8 imkoniyatdan jarimadan tashlash.

*Me'yor:* (aniq otilgan to'plar soni / marta); 4 – 3 – 2 – 1;

**4. Yengil atletika:** 60 metrga yugurish.

*Me'yor:* 60 m (sek); 9,5 – 10,0 – 10,5 – 11,0;

## (O'G'IL BOLALAR)

### 1-BILET

**1. Yengil atletika:** 4x10 m ga mokisimon yugurish.

*Me'yor:* (sek) 9,5 – 9,8 – 10,3 – 10,8;

**2. Gimnastika.** Baland turnikda tortilish.

*Me'yor:* (marta) 9 – 7 – 5 – 3.

**3. Futbol:** Futbol to'pi bilan oyoqda janglyorlikni bajarish.

*Me'yor:* (marta) 20 – 18 – 15 – 12.

**4. Yengil atletika:** 1000 m ga yugurish.

*Me'yor:* (daq/sek) 3,40 – 4,00 – 4,30 – 5,00.

### 2-BILET

**1. Yengil atletika:** Yugurib kelib uzunlikka sakrash.

*Me'yor:* (sm) 400 – 360 – 320 – 300

**2. Gimnastika.** Chalqancha yotgan holatda 1daqqa davomida gavgani ko'tarish.

*Me'yor:* (marta). 25 – 23 – 18 -15.

**3. Basketbol:** Basketbol to'pini 8 ta imkoniyatda jarimadan tashlash.

*Me'yor:* (aniq otilgan to'plar soni/marta); 5 – 4 – 2 -1;

**4. Yengil atletika:** 2000 m ga yugurish.

*Me'yor:* (min/sek) 9,30 – 10,0 – 11,0 – 12,0.

### 3-BILET

**1. Yengil atletika:** 60 m ga yugurish.

*Me'yor:* (sek) 9,0 – 9,5 – 10,0 – 10,3.

**2. Gimnastika:** 120 sm balandlikdagi uzunasiga o'rnatilgan «Xari» ustidan oyoqlarni kerib sakrash.

*Me'yor:* texnikasiga e'tibor qaratish.

**3. Qo'l to'pi:** Qo'l to'pini 30 metr masofaga urib yugurish.

*Me'yor:* (sek); 6,6 – 6,7 – 6,8 – 7,0.

**4. Yengil atletika:** Yugurib kelib tennis to'pini (150 gr) uloqtirish.

*Me'yor:* (metr) 45 – 40 – 33 – 25;

### 4-BILET

**1. Yengil atletika:** Yugurib kelib tennis to'pini (150 gr) uloqtirish.

*Me'yor:* (metr) 45 – 40 – 33 – 25;

**2. Gimnastika:** Polda tayanib qo'llarni bukish va yozish.

*Me'yor:* (marta) 23 – 17 – 13 – 11.

**3. Voleybol:** 1,5 m radiusli aylana ichida to'pni bosh ustidan 1 daqiqa davomida yuqoriga oshirish va qabul qilish.

*Me'yor:* (marta); 20 – 15 – 10 – 5;

**4. Yengil atletika:** 4x10 m ga mokisimon yugurish.

*Me'yor:* (sek) 9,5 – 9,8 – 10,3 – 10,8;

## 5-BILET

**1. Yengil atletika:** Turgan joyidan uzunlikka sakrash.

*Me'yor:* (sm); 200 – 180 – 160 – 145.

**2. Gimnastika:** Arg'amchida 60 sek. davomida sakrash.

*Me'yor:* (sek/marta) 90 – 80 – 70 – 65;

**3. Futbol.** To'pni zarb bilan tepish (o'ng va chap oyoqda tepilgan to'plar yig'indisi)

*Me'yor:* (metr) 60 – 55 – 50 – 40.

**4. Yengil atletika:** 2000 m ga yugurish.

*Me'yor:* (min/sek) 9,30 – 10,0 – 11,0 – 12,0

Nashr. lits. № 154. 14.08.09. Bosishga 21.02.2012-y.da ruxsat etildi.

Bichimi 60x90  $\frac{1}{16}$ . Tayms garniturası. Ofset bosma.

1,75 shartli bosma tobog'i. 2,0 nashr tobog'i.

raqamli buyurtma.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida  
chop etildi. 100128. Toshkent. Shayxontohur ko'chasi, 86.

**Bizning internet manzil: [www.iptdgulom.uz](http://www.iptdgulom.uz)**

**E-mail: [iptdgulom@sarkor.uz](mailto:iptdgulom@sarkor.uz)**